

## MINTAQANING IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA ZIYORAT TURIZMI TARMOG‘INIDIVERSIFIKATSIYA QILISHNING AHAMIYATI

*Naimova Sh.G‘*

*Axborot-texnologiyalari va menejment universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada ziyorat turizmini rivojlantirishning milliy iqtisodiyotga ta‘siri, uning mintaqaviy iqtisodiy salohiyatni oshirishdagi o‘rni va diversifikatsiya jarayonining samaradorligi tahlil qilingan. Xususan, ziyorat turizmini kengaytirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va turizm xizmatlari ko‘lamini kengaytirish kabi muhim omillar o‘rganilgan.

Sohaning investitsion jozibadorligini oshirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ziyorat turizmi tarmog‘ini yanada rivojlantirish va milliy iqtisodiyotimizni yuksaltirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlarni shakllantirish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** turizm infratuzilmasi, xizmatlar sektori, innovatsion yondashuvlar, investitsion jozibadorlik, raqamli texnologiyalar, turistik mahsulotlar, mintaqaviy rivojlanish, barqaror iqtisodiy o‘sish.

**Kirish.** Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida turizm sohasi global miqyosda yuksak o‘sish sur‘atlariga ega bo‘lib, u mintaqaviy iqtisodiy salohiyatni oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, ziyorat turizmi nafaqat madaniy merosni targ‘ib qilish, balki iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va ish o‘rinlarini yaratish nuqtai nazaridan ham katta ahamiyat kasb etadi. Mintaqalarning o‘ziga xos diniy va madaniy obidalarga ega bo‘lishi, sayyohlarni jalb qilish orqali mahalliy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda aholi farovonligini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ziyorat turizmi tarmog‘ini diversifikatsiya qilish ushbu sohaning barqarorligini ta‘minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Xususan, xizmatlar spektrini kengaytirish, ziyorat sayyohligi bilan bog‘liq innovatsion mahsulotlarni joriy etish, ekoturizm, sog‘lomlashtirish turizmi, gastronomik turizm kabi yo‘nalishlarni integratsiyalash orqali mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

**Ziyorat turizmi tarmog‘ini diversifikatsiya qilish** – bu ziyorat turizmi sohasi tarkibini kengaytirish, unga qo‘shimcha xizmatlar kiritish, innovatsion texnologiyalar va yangi turistik mahsulotlarni joriy etish orqali uning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan jarayondir. Diversifikatsiyash orqali ziyorat turizmining mavsumiy va geografik cheklolari kamayadi, xizmatlar spektri kengayadi hamda milliy iqtisodiyotga ta‘siri ortadi.

Tadqiqot ziyorat turizmi tarmog‘i diversifikatsiyasi mintaqaning iqtisodiy salohiyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan bo‘lib, ziyorat turizmini rivojlantirishning nazariy asoslari, diversifikatsiyaning samaradorligi hamda mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyotga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Bu esa kelajakda turizm siyosatini yanada takomillashtirish va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Ziyorat turizmini diversifikatsiya qilishning quyidagi mexanizmlarini ko‘rib chiqamiz:**

◆ **xizmatlar tarmog‘ini kengaytirish**–Ziyorat turizmini sog‘lomlashtirish turizmi, ekologik turizm, gastronomik turizm va madaniy turizm bilan integratsiya qilish va mehmonxona, ovqatlanish, transport va ekskursiya xizmatlarini diversifikatsiya qilish;

- ◆ **innovatsion texnologiyalarni joriy etish** -raqamli platformalar orqali onlayn xizmatlarni rivojlantirish (virtual turlar, mobil ilovalar, QR-kod ) va sun'iy intellekt (Big Data) asosida sayyohlik oqimini bashorat qilish va boshqarish;
- ◆ **investitsion jozibadorlikni oshirish**-xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini yo'lga qo'yish va turizm infratuzilmasiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish;
- ◆ **turistik mahsulot va yo'nalishlarni diversifikatsiya qilish**-ziyosat bilan bog'liq yangi marshrutlar yaratish va ularni boshqa turizm turlari bilan uyg'unlashtirish va sayyohlarga yo'naltirilgan milliy va mintaqaviy brendlarni shakllantirish;
- ◆ **turizm infratuzilmasini rivojlantirish**-transport tizimini yaxshilash, zamonaviy mehmonxonalar va turistik komplekslar qurish va hududiy o'ziga xoslik va mahalliy an'analar asosida turistik markazlarni rivojlantirish;
- ◆ **marketing va targ'ibot strategiyalarini takomillashtirish**-raqamli marketing vositalari orqali xalqaro auditoriyaga yo'naltirilgan reklama kampaniyalarini olib boorish va turizm brendingini mustahkamlash va ijtimoiy tarmoqlarda faol targ'ibot qilish;

O'zbekistonda turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish jarayonida uning istiqbolli shakli sifatidagi ziyorat turizmini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ziyorat turizmini jadal rivojlantirish zarurligini ta'kidlab, "Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilganligi"ni bildirdi<sup>1</sup>. Ushbu strategik vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish uchun mamlakatimizda mavjud bo'lgan boy ziyorat turistik salohiyatidan xalq manfaatlarini yo'lida samarali foydalanish va muqaddas qadamjolar tomon ziyoratchilar oqimini keskin ko'paytirish uchun ziyorat turizmini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini izlash va amalda qo'llash dolzarb masala hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son qarori mamlakatda ichki turizmni rivojlantirish va diversifikatsiya qilishga qaratilgan huquqiy-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur qaror ichki turizm xizmatlarini kengaytirish, hududiy turistik infratuzilmani rivojlantirish va turizm sohasining iqtisodiyotdagi hissasini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Qaror bilan "Respublika iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko'tarish, ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va hajmini keskin ko'paytirish, fuqarolarni mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, zamonaviy xizmatlar infratuzilmasini jadal rivojlantirish, shuningdek, aholini ish bilan ta'minlash va ularning daromad manbaini kengaytirish" kabi muhim strategik vazifalar belgilangan.<sup>2</sup>

Ziyorat turizmini rivojlantirishning amaldagi an'anaviy usul va vositalari asosiy sajda qiladigan muqaddas joylarni jozibali ziyorat destinatsiyalarga aylantirish, ziyoratchilar turli qatlamlarining talab-ehhtiyojlarini to'liq inobatga olish, halol turistik xizmatlari sifatini oshirish, turistik faoliyatni majmual va kam xarajatlar bilan yuritish, davlat-xususiy sherikligi usulini ziyorat

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.<https://president.uz/ru/lists/view/3324> [24.01.2020].

<sup>2</sup> [PQ-232-son 30.04.2022. Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida](#)

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

turizmini tashkil qilishda qo'llash, ziyorat turistik faoliyatining innovatsion va investitsion faolligini oshirish, raqamli ziyorat turizmini rivojlantirish kabi keng qamrovli va samarali imkoniyatlardan sohani rivojlantirishda talab darajasida foydalanish imkonini bermayapti. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun xorijda sinalgan va xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etishga qodir bo'lgan diversifikatsiya qilish mexanizmlarini ziyorat turizmini rivojlantirishda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ziyorat turizmi bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lib borayotgan tarmoqlardan biridir. Mamlakatimizning qaysi shahriga yoki diqqatga sazovar joylariga borsangiz albatta turistlarga duch kelasiz. Xarakterli jihati ularning aksariyat qismi xorijiy turistlarga to'g'ri keladi. Ziyorat turizm iqtisodiy jarayonlarning keng qamrovli sohasiga aylanmoqda.

### **Mazkur masalaning dolzarbligi yana quyidagilar bilan izohlanadi:**

- ziyorat turizmi iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida kelajakda yanada yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi lozimligi;
- sohaning rivojlanishi tufayli aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatining yaratilishi;
- ziyorat turizmi sohasining jahon miqyosida jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganligi tufayli o'zimizda ham bunga imkoniyatlarimizning mavjudligi;
- ziyorat turizmiga dunyo aholisining qiziqishi ortib borayotganligi tufayli xizmatlarni eksport qilish imkoniyatining yaratilishi;
- aholi daromadlarining oshib borishi, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni kengaytirishi, hayot darajasi va sifatini oshirish imkoniyatlarining paydo bo'lishi;
- O'zbekistonning katta turistik salohiyatga ega ekanligi, Qashqadaryo, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz shaharlarining YUNESKO tomonidan e'tirof etilganligi, o'z navbatida bularga jahon hamjamiyatining qiziqishi ortganligi.

Bu holat quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, aholining bandligini ta'minlaydigan, ularni dam oldiradigan, davolaydigan, ma'lum ma'noda malakasini va tajribasini oshiradigan soha bo'lsa, ikkinchidan, tadbirkorga ham, turistik firmaga ham, ma'lum hududga ham, davlatga ham daromad keltiradigan iqtisodiyot tarmog'iga aylandi. Shu jihatdan ushbu sohani ijtimoiy-iqtisodiy soha deb aytish o'rinli.

Ziyorat turizmi ijtimoiy-iqtisodiy sohaga kiritishni asoslashda uning tarmoq sifatida ishlab chiqarishdagi o'ziga xos xususiyatlarini, uning shakllanishidagi asosiy omillarini, milliy iqtisodiyotga qay darajada daxldorligini, ularning asosiy faoliyati qay jihatdan o'ziga xosligi kabi xususiyatlari inobatga olinadi. Agar yuqoridagilarni inobatga oladigan bo'lsak, ziyorat turizm boshqa soha va tarmoqlarda takrorlanmaydigan o'ziga xos vazifa va funksiyalarni bajaradi. Bu esa, uning tarmoq yoki soha sifatida qaralishiga nazariy asos bo'ladi. Ko'p hollarda tarmoq va soha bir xil ma'nolarda ishlatiladi.

Qashqadaryo mintaqasi iqtisodiy salohiyatini oshirishda ziyorat turizmini diversifikatsiya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar:

- mintaqa ziyorat turizmini boshqa turizm turlari bilan integratsiya qilish (ekoturizm, sog'lomlashtirish turizmi bilan bog'lash);
- turizm infratuzilmasini rivojlantirish (yo'l va transport xizmatlarini yaxshilash, ziyoratchilar uchun zamonaviy xizmatlar yaratish va ziyorat marshrutlarini rivojlantirish);
- raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilish (mobil ilova va veb-saytlarni takomillashtirish);

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish (davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalar amalga oshirish va ziyorat turizmini xalqaro miqyosda targ'ib qilish);
- mahalliy aholini turizm sohasiga jalb qilish;
- o'tkaziladigan madaniy va diniy tadbirlarni saviyasini oshirish.

Ziyorat turizmini diversifikatsiya qilish orqali Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti va turizm sohasi rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatish mumkin, chunki bu jarayon turizm xizmatlari spektrini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb etish hamda viloyatning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ziyoratchilar uchun qulay va zamonaviy sharoitlarni yaratish orqali sayyohlar oqimini barqarorlashtirish, mahalliy aholining turizm sohasidagi ishtirokini kuchaytirish va mintaqaning O'zbekistonning yetakchi ziyorat turizm markazlaridan biriga aylantirish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/ru/lists/view/3324> [24.01.2020].
2. Ziyarat. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Ziyarat>
3. Pardayev M.Q., Atabayev R., Pardayev B.R. Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari //T.: "Fan va texnologiya". - 2007. 32 b.
4. Pardayev M.Q. Atamalar ta'riflari. Servis ilmiy-amaliy jurnal. 2019, 3-maxsus son. S:194-197.
5. Uzoqov J.N. Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, ISSN: 2091-573 X, ilmiy jurnal. – №2024-6/2 (115). B. 236-240.
6. Uzokov J. Government regulation and management of the development of pilgrimage tourism in uzbekistan. // Journal of Management Value & Ethics, Gwalior management academy, ISSN: 2249-9512, Jan-March 24 Vol. 14 No. 01, S:jif 8.001 & Gif 0.626. – P. 101-113.
7. Uzoqov J.N. Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmining ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyati va o'rni. // QarMII "Innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnali, ISSN: 2181-4732, Maxsus son, 2023-yil dekabr. – B. 136-142.